



Jizzax davlat
Pedagogika
Universiteti

TARIX FAKULTETI

HISTORY AND SOCIETY

ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
Журнал

№ 1

JOURNAL
2024



TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

2024-yil 1-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, tarix metodikasi

Bosh muharrir: Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD),
dotsent.tarix fakulteti dekani

Bosh muharrir Pardayev A.H. JDPU, tarix, t.f.n.,
o‘rinbosari: dotsent

Mas’ul kotib: Karimova N.I JDPU, tarix,t.f.b.f.d (PhD)

TAHRIRIYAT A’ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), professor
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), professor
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, professor
14. Kobzeva.O.P. - tarix fanlari doktori, professor
15. G‘ofurov J.I – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o‘qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi

Dizayner va sahifalovchi:

Karimova. N.I

MUNDARIJA

1. **MUNDARIJA** _____ 3-4
2. **TARIX FANINI O'QITISHDA TARIXIY-BADIIY ADABIYOTLARDAN FOYDALANISHNING MAZMUNI VA MOHIYATI.** Ahror Pardayev Hasanovich. Zokirova Muxlisa. _____ 5-9
3. **TURONNING BOHODIR VA DONO AYOLLARI.** Boltayev Abdurasul. Olim Mamarasulov. _____ 9-14
4. **SOHIBQIRON AMIR TEMUR VA UNING HARBIY MAHORATI.** Boltayev Abdurasul. Abdullayev Abdulaziz _____ 15-18
5. **MUSTAQILLIK YILLARIDA JIZZAX SHAHRINI ZAMONAVIY QIYOFAGA KELTIRISH.** Abdurasulova Dilbar To'raevna . Soatov Diyor _____ 19-24
6. **FRIGIYA PODSHOLIGI.** Xamrayev G'ayrat G'aniyevich. Jumaqulova Diyora Ergashboy qizi. _____ 25-29
7. **KUSHON DAVLATI TARIXI VA MADANIYATI XUSUSIDA.** O.Abdig'apparov. Nabiyeva Farmuda. _____ 29-34
8. **MISR MADANIYATINING O'ZIGA XOS JIHLTLARI.** O.Abdig'apparov. Naxalboyev Fozilbek. _____ 34-38
9. **TA'LIMGA MILLIYLIK RUHI ASOSIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH SAMARADORLIGIGA OID.** J.O.Saidov. Shukurova Maftuna Alisher qizi. _____ 38-43
10. **G'ARBIY YEVROPADA YANGI DAVR MADANIYATINING SHAKLLANISHI.** To'ychiyeva Dilnoza Ikromovna. Yo'ldoshev Bektemir Tursunboy o'g'li. _____ 44-49
11. **ABDURAHMON JEVACHI — ERK VA OZODLIK KURASHCHISI.** B.Mirkomilov. Sh.Boymatov. _____ 49-53
12. **РОЛЬ ЖЕНШИН В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (КОНЕЦ XIX И НАЧАЛО XX ВЕКА).** Каримова Наргиза Икрамовна. Акрамова Навбахор. _____ 53-58
13. **ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ СРЕДНЕЙ АЗИИ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА.** Каримова Наргиза Икрамовна. Бобокулова Севинч. _____ 58-64
14. **DAVLATCHILIK TARIXIMIZDA SIYOSIY TRANSFORMATSIYANING NAMOYON BO'LISHI** Jamshid.Eshboyevich. Toshboyev. Abdug'aniyev Jahongir. _____ 64-68
15. **TARIXIY ARXEOLOGIK MANBALAR VA UNING QADIM TARIXIMZDA TUTGAN O'RNI HAQIDA.**Furqat.Eshboyevich.Toshboev. R. Nosirova . _____ 69-73
16. **LARSA SHAHRI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR.** Tugalov Boburjon Baxodir o 'g'li. Karimov Boburjon Bobomurod o'g'li. _____ 73-78
17. **ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ И КУЛЬТУРНАЯ ЖИЗНЬ В СРЕДНЕЙ АЗИИ (В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛО XX ВЕКА).** Каримова Наргиза Икрамовна, Машарипова Нодира. _____ 78-84
18. **TEMURIYLAR DAVRIDA SIYOSIY JARAYONLAR.** Burxonov Lazizjon Salimjon o'g'li. Nurullayeva Farangiz Dilshod qizi. _____ 85-89
19. **ТРАДИЦИИ И ОБЫЧАИ КАРАКАЛПАКОВ.** Каримова Наргиза Икрамовна Джумамуратова Инобат. _____ 89-93
20. **YOZMA MANBALARDA KESH VA NAXSHAB TARIXINING YORITILISHI** Jo'raqulova Nurmohi Ne'matulla qizi. Bobur Karimov. _____ 94-100
21. **KRIPTOGRAFIYA NIMA SABABDAN PAYDO BO'LDI YOXUD ILK SHIFRLASH NAMUNALARI.** Mirkomilov Baxtiyor.Axmedova Dildora Erkinjon qizi _____ 100-105

TARIXIY ARXEOLOGIK MANBALAR VA UNING QADIM TARIXIMZDA TUTGAN O'RNI HAQIDA

F.E.Toshboev, (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti professori, R. Nosirova JDPU, Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu makolada tarixiy arxeologik manbalar ularning muzey fondlaridagi namunalari jumladan, Qadimgi Ustrushonada o'rganilgan Qaliyatepa, Pardaqltepa, Komilbobotepa (Jizzax shahri), Galatepa, Soi Gurxona va Sari Kuburdan (O'ra-Tepa) aniqlangan kulolchilik idishlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Nurtepa, Mug'tepa, O'rdatepa, Xitoytepa, Munchoqtepa, Eski Xovos, Qaliyatepa, Qo'rg'ontepa, Munchoqtepa, Shirinsoy qabristoni, M.H. Pardaev, Qaliyatepa, "Qovunchi madaniyati".

Аннотация: В данной статье представлены сведения об историко-археологических источниках и их образцах в музейных коллекциях, в том числе о керамических сосудах, обнаруженных в Древней Уструшане из Калиятепы, Пардакултепы, Комилбоботепы (город Джизак), Галатепы, Сои Гуркхона и Сари Кубура (Ора-Тубе).

Ключевые слова: Нуртепа, Мугтепа, Ордатепа, Чинатепа, Мунчоктепа, Эски Ховос, Калиятепа, Коргонтепа, Мунчоктепа, Ширинсойский могильник, М.Х. Пардаев, Калиятепа, «Каунчинская культура».

Annotation: This article presents information about historical and archaeological sources and their samples in museum collections, including ceramic vessels discovered in Ancient Ustrushana from Kaliyatepa, Pardakultepe, Komilbobotepa (city of Jizzakh), Galatepa, Soi Gurkhon and Sari Kubura (Ora - Tube).

Key words: Nurtepa, Mugtepa, Ordatepa, Chinatepa, Munchoktepa, Eski Khovos, Kaliyatepa, Korgontepa, Munchoktepa, Shirinsoy burial ground, M.Kh. Pardaev, Kaliyatepa, "Kaunchinsaya culture."

Mamlakatimizda milliy madaniy merosimizni asrash va kelajak avlodga asl holicha yetkazish masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Xalqimizning boy moddiy va ma'naviy me'rosini targ'ib qilish, "... yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash hamda amalga oshirish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish", Prezident Sh.M. Mirziyoev boshchiligidagi davlatimiz ichki siyosatining asosiy yo'nalishlaridan

birini tashkil etmoqda¹. Ma'naviy sohadagi ushbu yuksalish jarayonida muzeylarning o'рни alohida ehtiyoj sezilmoqda.

Muzey fondlaridagi arxeologiyaga oid eksponatlarning asosiy qismini kulollik idishlari tashkil etadi. Kulolchilik hunarmandchiligi, bir tomondan, moddiy ishlab chiqarish mahsuloti sifatida xalq ehtiyojini qondirsa, ikkinchi tomondan xalqning o'sha davrdagi ma'naviy madaniyatini belgilab beruvchi omil hisoblanadi. Shu jihatdan kulolchilik xalqning o'sha davr moddiy va ma'naviy madaniyati haqida ma'lumot beruvchi muhim manba bo'lib hisoblanadi. Sopol buyumlar arxeologik qazuvlar jarayonida eng ko'p qayd etiladigan moddiy manba hisoblanib u ma'lum yodgorlik va komplekslar davriy sanasini belgilashda muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, hududda yashagan xalqlarning ijtimoiy turmush darajasini, kundalik hayot faoliyatini, moddiy madaniyatning rivojlanishini, qo'shni hududlar bilan moddiy aloqalarini va boshqa ko'plab muommaviy masalalarni yechishda katta qimmatga ega.

Miloddan oldingi so'nggi va milodning ilk asrlari sopol kompleksi haqida shu davr Nurtepa, Xo'jand, Mug'tepa yodgorliklari materiallari bilan birgalikda ulardan bir oz keyinroq paydo bo'lgan O'rdatepa, Xitoytepa, Munchoqtepa, Eski Xovos, Qaliyatepa, Qo'rg'ontepa yodgorliklari materiallari ma'lumot beradi. Biz bu davr sopol kompleksini nisbatan to'liq o'rganilgan Munchoqtepa yodgorligi materiallari asosida ko'rib chiqamiz. Bu davr sopol kompleksi ham, asosan, qo'lda va qo'l charxida yasalgan kulollik idishlaridan iborat. Qo'lda yasalgan sopol idishlar kompleksi, asosan, Shirinsoy qabristoni materiallari asosida kuzatiladi. Idishlarning asosiy qismi qizg'ish va oqish angob bilan qoplangan.

Qadimgi Ustrushona hududi yodgorliklari sopol kompleksi nisbatan yaxshi o'rganilgan bo'lishiga qaramay bu yo'nalishda bir qancha muammolar ham mavjud. Bugungi kunda tadqiqotchilar oldida hududdagi hamma yodgorliklar uchun umumiy bo'lgan sopol kompleksining taraqqiyotini ko'rsatuvchi yagona davriyxronologik jadval ishlab chiqilmaganligi mazkur masaladagi tadqiqotchilar

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947- сонли Фармони “ Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси”.

oldidagi asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ustrushona kulolchilik kompleksi taraqqiyotini bir necha yo'nalishlarda kuzatishimiz mumkin. Ular kulolchilik markazlari va sopol komplekslarida namoyon bo'ladi.

Arxeolog M.H. Pardaev aniqlashicha, Ustrushona moddiy yodgorliklarida aniqlangan sopol idishlar namunalarning ilmiy tahlili, bu komplekslarni davrlashda bir muncha murakkabliklar keltirib chiqaradi. Murakkablikning birinchi sababi, mazkur region sopol idishlari uchun davrlarni belgilovchi xronologik jadvalning yo'qligidir. Bundan tashqari o'troq dehqonchilik vohalari bilan ko'chmanchi, cho'l madaniyati chegarasidagi mavzelar, turli xususiyatli moddiy-madaniyatlarning uchrashuv joyi, «chorraha»si bo'lganligi sababli, bu hududda madaniyatlarning o'zaro ta'sir va qorishuv darajasining yuqori ekanligidir².

Ilk o'rta asr kulolchilik markazlari bir necha joylarda aniqlangan. Bular Qaliyatepa, Pardaqultepa va Komilbobotepa (Jizzax shahri), Galatepa (Kalininoboddan shimoliy-g'arbda)³, Soi Gurxona (Shahristonning janubiy - sharqiy qismida) va Sari Kuburdan (O'ra-Tepa) aniqlangan kulolchilik xumdonlari, kulollarning ishlab chiqarish markazlari va siniq, yaroqsiz holga kelgan idishlar tashlanadigan chuqurlardir. Ustrushona kulolchilik markazlari biror bir sohaga (masalan Shahriston kulollari sutni qayta ishlashga mo'ljallangan idishlar, ko'chma o'choqlar ishlab chiqarishga) ixtisoslashgandir⁴. Bu manzilgohlar ma'lum bir ma'noda ilk o'rta asr Ustrushona kulolchilik markazlari taraqqiyoti darajasini ko'z o'ngimizda tiklab, shahar (Sari Kubur, VII-VIII asrlar, Soi Gurxona VIII-XI asrlar) va qishloq (Galatepa, V-VI asrlar) kulollari mahsulotlari haqida ma'lumot beradi⁵.

Ustrushonada qadimgi davrlardayoq mahalliy ildizlarga ega kulollik hunarmandchiligi shakllangan va asrlar osha taraqqiy etib kelgan. 1940-yillarda Farhod kanali qurilishi hududidagi Munchoqtepada arxeologik izlanishlar

² Пардаев М.Х. Жиззах воҳасининг VII-VIII асрлардаги кулоллик идишлари // ЎММТ. Нашр,30. Самарканд, 1999.

³ Самойлик П.Т. Обжигательная керамическая печь из Галатепы. // МКТ. Вып. 3. -Душанбе: Дониш. 1978. С. 203-207.

⁴ Самойлик П.Т. Керамисты Уструшаны. // По следам древнейших культур Таджикистана. Душанбе: Ирфон, 1987. С. 156-167.

⁵ Самойлик П.Т. Обжигательные печи Бунжиката (IX–XI вв). // АРТ (1979). Вып. XIX. –Душанбе: Дониш. 1986. С.404-412.

o'tkazgan V.F.Gaydukevichga tegishlidir. Munchoqtepaning eng pastki qurilish davriga oid madaniy qatlamlardan kulollik xumdoni qoldiqlari qayd etilgan bo'lib, milodiy I-II asrlar bilan davrlangan ushbu inshootning quyi o'txona qismi saqlanib qolgan. O'txona lyos materikdan o'yilgan, uning shakli trapesiyasimon ko'rinishda, uzunligi -5,7m., ichki tomonining eng keng joyi -1,2m., eng tor joyi -0,7m., maksimal saqlanib qolgan balandligi-1,18m.ni tashkil qiladi. O'txonaning o'tin qalaydigan "og'zi" janubga qaragan. O'txonaning markaziy qismida xom g'ishtlardan barpo qilingan besh juft "mo'risimon" qurilma mavjud. Har bir qurilmaning ichida vertikal holatda, issiqlikni tepaga ko'tarib beruvchi "kanallar" faoliyat ko'rsatgan. "Kanallar"ning devori issiqlik bosimi ostida qizarib ketgan⁶.

O'txonaning ichi, ayniqsa o'tin qalanadigan joy katta hajmda kul bilan, bu qatlamning usti g'isht parchalari, devor suvog'i qoldiqlari, sopol idishlar siniqlari bilan qoplangan. O'txonaning asosiy qismidan faqat tashqi yon devorlari saqlanib qolgan bo'lib, u xom g'ishtlardan terilgan. Bu devorlarning eng qalin joyi 42sm.ga teng. Kuchli va davomiy yongan olov sababli, hatto o'txona devorlarining tashqi tomoni ham qizg'ish rangga kirgan. Inshootning tepa, xumdon, ya'ni idishlar pishiriladigan qismi batamom buzilib ketgan, uning o'rni yuqoridan tushgan, qalinligi 3m.ga yaqin qatlam bilan qoplangan.

Ushbu texnik asoslarga ko'ra, bu qurilmani V.F.Gaydukevich so'zsiz xumdon, deb ta'riflaydi va kulollik texnikasi yaxshi o'rganilgan Old Osiyo, Vavilon va O'rta Osiyoning boshqa o'lkalarida topilgan xumdonlar bilan qiyosiy o'rganadi. Bu Ustrushonada topilgan dastlabki kulollik xumdoni sifatida boshqa mutaxassislar tomonidan ham e'tirof etilgan.

Kulollik hunarmandchiligi Ustrushonada keyingi davrlarda, xususan ilk o'rta asrlarda ham rivojlanishdan to'xtamadi. Bu davrlarga oid kulollik hunarmandchiligi markazlari Ustrushonaning markaziy qismida joylashgan Galatepa (Kalininobod), Soyi-Go'rxona (Shahriston), Sari Kubur (O'ratepa) yodgorliklaridan ochilgan va o'rganilgan. Xronologik jihatdan uzviy bo'lgan

⁶ Гайдукевич В.Ф. Керамическая обжигательная печь Мунчактепе. // КСИИМК. Вып. XXVIII. - М.-Л., 1949. С. 77-82.

ushbu ilk o'rtta asr xumdonlari V-IX asrlarda, xususan Galatepa xumdoni V-VI asrlarda, Sari-Kubur VII-VIII asrlarda, Soyi-Go'rxona xumdoni VIII-IX asrlarda faoliyat ko'rsatgan. Mazkur yodgorliklarda o'ziga xos kulollik markazlari tashkil etilgan bo'lib, buni xumdonlar uchun foydalanilgan maxsus o'ralardan bilish mumkin.⁷.

Shunday qilib, ta'rif bayoni keltirilgan kulollik mahsulotlarining barcha turlari Ustrushonaning boshqa vohalaridan, qo'shni mintaqalardan, uzoq madaniy o'choqlardan o'z muqoyasaviy o'xshashliklarini topadi. O'rganilgan kulollik komplekslarining tahliliga ko'ra yangi eraning I-II asrlaridan boshlab O'rtta Sirdaryo chorvador xalqlariga taalluqli "Qovunchi madaniyati"ning madaniy ta'siri chegaradosh Ustrushonaga, xususan Jizzax vohasiga kuchli darajada bo'lganligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi 4947- sonli Farmoni " O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi".
2. Pardaev M.X. Jizzax vohasining VII-VIII asrlar—dagi kulollik idishlari // O'MMT. Nashr,30. Samarqand, 1999.
3. Samoylik P.T. Objigatelnaya keramicheskaya pech iz Galatepa. // MKT. Vip. 3. -Dushanbe: Donish. 1978. S. 203-207.
4. Samoylik P.T. Keramisti Ustrushani. // Po sledam drevneyshix kultur Tadjikistana. Dushanbe: Irfon, 1987. S. 156-167.
5. Gaydukevich V.F. Keramicheskaya objigatelnaya pech Munchaktepe. // KSIIMK. Vip. XXVIII. - M.-L., 1949. S. 77-82.
6. Toshboev F.E. Ustrushona chorvadorlarining kullolchiik idishlari haqida ba'zi mulohazalar // O'zbekiston tarixining dolzarb muammolari yosh tarixchilar talqinida. — Samarqand. 2016. - B. 52.

⁷ Тошбоев Ф.Э. Уструшона чорваторларининг куллолчиик идишлари хақида баъзи мулоҳазалар // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тарихчилар талқинида. - Самарқанд. 2016. - Б. 52.

